

ZAMONAVIY TARBIYACHINING O'Z KASBIGA FIDOIYLIGI

Ibraimova Sanobar Qalbaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Qonliko'l tumani

12-sonli DMTT tarbiyachisi

Butun dunyoda tarbiyachilar o'z tarbiyalanuvchilarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaridan kelganini qilmoqdalar. Nafaqat o'quv dasturlarini o'rgatish, balki milliy qadriyatlarni singdirish va ularni real hayotga tayyorlashda tarbiyachi fidoiylig, o'z ishiga ishtiyoq bilan yondoshadi, xoh u ta'lim-tarbiya berish jarayoni bo'lsin, xoh u yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkazish vaqtida.

"Pedagog" kasbi qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan, o'sha kunlarda bolani tarbiyalashda maxsus qul - tarbiyachi shug'ullangan, u faqat bola bilan shug'ullangan va hamma joyda unga hamroh bo'lgan. Qolgan vaqtlarda tarbiyachi bolaning rivojlanishini kuzatib borgan, uni xavf-xatarlardan himoya qilgan va hayotga munosabatini shakllantirishga yordam bergan, bolaning qobiliyatini, harakatlari va xatti-harakatlarini rivojlantirgan. Ko'p asrlar o'tdi, lekin tarbiyachining vazifasi o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Zamonaviy maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari har bir bolaning qobiliyatini ochib berish, munosib va vatanparvar, ijodkor, ochiqko'ngil, raqobat dunyosida hayotga tayyor shaxsni tarbiyalashdan iborat. Va bu yangi bolalar bog'chasi - yangi tarbiyachilarni anglatadi. Yangi tarbiyachilar qanday bo'lishi kerak? Albatta zamonaviy, moslashuvchan, o'z ustida ishlovchi.

Keyin savol tug'iladi: Zamonaviy tarbiyachilar qanday bo'ladi?

- Zamonaviy kiyingan?
- Bir nechta tillarni biladigan?
- Ularning arsenalida juda ko'p gadjetlar bor?
- Zamonaviy taxnologiyalardan foydalana oladigan
- Bolalar bilan do'stona munosabat o'rnatish oladigan

Keling, zamonaviy tarbiyachi kim ekanligini tushunishga harakat qilamiz zamonaviy tarbiyachi har doimgidek bo'lishi kerak, deb hisoblayman ya'ni mehribon, do'stona, e'tiborli, sabrli, izlanuvchan, hayotga qiziquvchan, barcha shaxsiy muammolarini maktabgacha ta'lim tashkiloti eshigidan tashqarida qoldira oladigan. Zamonaviy tarbiyachi harakatchanligi va dinamikligi, shuningdek, pedagogik madaniyatning yuqori darajasi bilan ajralib turishi kerak. Zamonaviy pedagogning bag'rikenglik, xayrixohlik kabi fazilatlarini muhimligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Zamonaviy tarbiyachi ota-onalarni hurmat qilishni va ularning fikrini hisobga olishni o'rganish kerak, garchi bu tarbiyachining pedagogika g'oyasidan farq qilsa ham. Fidoiy tarbiyachi bola tarbiyasida eng muhim bosqich bu ota-onaning bola tarbiyasidagi rolini

oshirish ekanligini to'liq anglaydi va ota-onalar bilan hamkorlikni doimiy kuchaytirib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni maktabga tayyorlashda muhim bo'g'in bo'lgani sababli, bolalarni maktabga tayyorlashda nimaga e'tiborimizni qaratishimiz kerakligini bilishimiz kerak, zamon rivojlangani sari maktabda o'qishga yondashuv kundan-kun o'zgarib bormoqda, bugungi maktabgacha yoshdagi bolalarni kelajak nima kutmoqda?

Fidoiy tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilariga tayyor bilimlarini beradigan emas, balki ularni mustaqil izlanishlariga turtki beradigan bo'lishi kerak. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti nafaqat bolalarni ijtimoiylashuvga o'rgatish, balki ular bilan har kuni muloqot qilish, faoliyat bilan shug'ullanish, o'zlari va tarbiyalanuvchilari uchun yangi bilimlarni kashf qilish kerak! Shu o'rinda A.Distervegning "Yomon tarbiyachi haqiqatni aytadi, yaxshi tarbiyachi esa uni topishga o'rgatadi" degan gapi yodga tushadi. Xo'sh, asosiy narsa nima? Kasbimizdagi asosiy narsa bu bolalarni sevish, xuddi shunday, murosasiz va shartsiz sevish, ularga har lahza, nafas, qarash va yuragingizning bir parchasini berishdir aynan anu shu haqiqiy tarbiyachining fidokorligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug'bekovich, M. A., & Nodirjon o'g'li, I. A. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING TUTGAN O'RNINI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 7-8.
2. Hamrayeva, O. F., & Irodaxon, M. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA KOMUNIKATIV KOMPITENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 9-12.
3. Mizrabovich, S. I. (2023). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR ROLI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 13-20.
4. Muxammadmusayevich, E. R. (2023). BIOTEXNIK TIZIMLARDA AVTOMATLI BOSHQARUV. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 21-25.